

Bo'lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish omillari.

Maftuna Gapparova Erkin qizi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy

faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Bo'lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish omillarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritiladi

Резуме Обсуждаются содержание, сущность и значение факторов формирования и развития культуры управления у будущих специалистов

Abstrakt. The content, essence and importance of the factors of formation and development of management culture in future specialists are discussed

Pedagogik boshqaruv ilmi muayyan bir faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi vazifalarni bajarish jarayonlarini o'rghanishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Shuningdek, turli pedagogik vaziyatlarda boshqaruv funksiyalarini mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozimligi, muayyan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi bilimlarni taqdim etadi. Bo'lajak mutaxassislardan dastlab boshqaruvning nazariy-metodologik asoslari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bo'lajak mutaxassislar ongiga dastlab boshqaruv amaliyoti vujudga kelganligi, keyinchalik boshqaruvga oid nazariy yondashuvlar ilgari surilganligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni etkazish ham muhim ahamiyatga kasb etadi. Boshqaruv haqidagi aniq ma'lumotlar, bilimlar va tajribalar bizning ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Bu sohada ajdodlarmiz juda katta tajribaga ega bo'lganlar. Bunga misol qilib, "Temur tuzuklari"ini ko'rsatish mumkin. Ushbu asarda boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Bunday qimmatli fikrlar Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tomonidan ham ilgari surilgan. Boshqaruv pedagogikasida ajdodlarimizning qimmatli fikrlaridan samarali foydalangan holda bo'lajak mutaxassislardan maktabgacha ta'lim jarayonlarini adolatli boshqarishga oid bilimlarni singdirish ushbu jarayon sifati va samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki ajdodlarimiz har qanday jamoani boshqarish san'atini mukammal egallaganlar va bu sohada ham kelgusi avlodlarga arzigelik meros qoldirganlar. Xuddi mana shu merosdan oliy pedagogik ta'lim tizimida samarali foydalanish maqsadga muvofiqli. Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarini o'z ajdodlari tarixi, madaniyati, urf-odati, milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashimiz shunchalar zarurki, toki ular ajdodlarini xotirlaganda, qalbida g'urur va iftixor hissini tuyzinlar. Shu o'rinda, Sharqning buyuk mutaffakkiri qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy shunday

yozadi: “Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliv fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud salbiy sifatlardan, nopoliklardan tozalanishdir degan fikrni ilgari suradi. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulquning foydasiga va kimda bular etishmasa, xulq uning zarariga bo‘ladi”[3]. Haqiqatda ham, ma’naviy-axloqiy komillik, vijdoniylik, or-nomuslilik, o’zlik, Vatanga sadoqat, yaqinlariga g‘amxo‘r bo‘lish va boshqa insoniy tuyg‘ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Ularning asosida milliy tarbiya va katta mehnat yotadi. Bu borada oila, uzlusiz ta’limning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan mактабгача та’lim, mahalla hamkorligida tarbiyalanuvchilarni buyuk siymolar bilan tanishtirish vositasida milliy g‘urur, faxr, iftixor hislarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek pedagogikasiga hissa qo‘shgan taniqli ma’rifatparvar adiblar Behbudir, Abdulla Qodiriy, sheksper, Gompirenskiy, Abdulla Avloniy kabi olimlar pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an‘analarini, boshqaruv madaniyati,adolat, ta’lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir.

Yuqorida fikrlarga qo‘shilgan holda aytish o‘rinliki ta’limdagi tub o‘zgarishlar, yangi islohatlarni kirib kelishi, innovatsion ta’limni joriy qilinishi yangi boshqaruv paradigmasiga o‘tishni taqozo etmoqda. Mavjud adabiyotlarda boshqaruvga bir qator ta’riflar berilgan.

Bir guruh olimlar jumladan, Ye.A.Klimov V.S.Lazarev, N.Nkomb[4]lar boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi” tarzida talqin etganlar. Bu yo‘nalish tarafдорлари boshqaruvni maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish, sub’ektning ob’ektga ta’siri natijasida ob’ektning o‘zgarishidan iborat jarayon, deb hisoblaydilar.

M.Sharifxo‘jaev, Yo.Abdullaevlarning “Menejment” darsligida boshqaruv so‘zining ma’nosи faoliyat tarzida taqdim etilgan. Shuningdek, mutaxassislar boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Boshqa bir guruh olimlar boshqaruv sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ya’ni to‘g‘ri va teskari ta’sirlarning uzlusizligi, bir-biriga ta’sir etuvchi sub’ektlarning o‘zgarishini uyg‘un tarzda bog‘liqligi degan qarashlarni ilgari suradilar.

Aksariyat izlanishlarda boshqaruv jamoa a’zolarining insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sifatida izohlanadi.

M.M.Potashnik V.S.Lazarevlarning ta’biricha, boshqaruv faoliyat turi hisoblanadi. Bunday yondashuv doirasida bo‘lajak tarbiyachilarni alohida o‘ziga xos faoliyat turiga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. [4],

L.B.Itelson, A.A.Orlovlar nuqtai-nazariga ko‘ra boshqaruv bir tizimning ikkinchisiga ko‘rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Bunda boshqaruv sub’ektning boshqaruv ob’ektiga ko‘rsatadigan maqsadga yo‘naltirilgan va ob’ektning o‘zgarishiga olib keladigan ta’siri

sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv doirasida faollik boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqariluvchilar esa jarayonning passiv ishtirokchilari sifatida namoyon bo‘ladilar.

U.I.Inoyatov, R.Sh.Ahliddinov T.I.Shamovalar [2], boshqaruvni sub’ektlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir etuvchi faoliyati sifatida e’tirof etadilar. Bu jarayonda o‘zaro ta’sir jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyati jadallahshadi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, bir-biriga ta’sir etuvchi sub’ektlardagi o‘zgarishlarning mutanosibligi va sub’ektlararo o‘zaro to‘g‘ri va teskari aloqalarning uzviy bog‘liqligining ta’milanishini nazarda tutadi.

Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tushunchasining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha metodologik yondashuvlar ilgari surilgan. Ular:

- a) tizimli yondashuv, bunda boshqariluvchi tizimning tarkibiga kiruvchi ob’ekt va sub’ektlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir butunligini ta’minalash;
- b) vaziyatli yondashuv, bu jarayonda ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishni nazarda tutuvchi muayyan usullarning uyg‘unlashuvini ta’minalash;
- v) jarayonli yondashuv, ushbu yondashuv doirasida boshqaruv funksiyalari o‘zaro yagona, tadrijiy tarzda bog‘langan zanjirni tashkil etishiga erishish kabilar.

Djuraev R.X, [3], S.T.Turg‘unov [3], R.Sh.Ahliddinov [2], V.S.Lazarev [4], M.M.Potashnik [5], N.A.Sharay [6], N.V. Kuzminalarning[7], izlanishlarida ta’lim jarayonini boshqarishga pedagogikaning alohida sohasi sifatida qaralgan. Mazkur olimlarning ta’biricha, pedagogik menejment fanining nazariy-metodologik asosini sinergetik yondashuv, faoliyatli yondashuv, tizimli yondashuv, funksional yondashuv, vaziyatli yondashuv, refleksiv yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutaxassislar tomonidan ta’lim tashkilotlari hamda pedagogik jarayonlarni boshqarish modellarini ishlab chiqishda ushbu yondashuvlarning barchasiga tayanish lozim. Mazkur yondashuvlarning birortasi asosiy o‘rin egallagan taqdirda qolganlarining muayyan elementlari unga uyg‘unlashtiriladi. Chunki ushbu yondashuvlarning har biri pedagogik boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarda o‘z ajdodlari tarixi, madaniyati, urf-odati, milliy qadriyatlariga sodiq qilib tarbiyalashimiz shunchalar zarurki, toki ular ajdodlarini xotirlaganda, qalbida g‘urur va iftixon hissini tuysinlar. Shu o‘rinda, Sharqning buyuk mutaffakkiri qomusiy olimi Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: “Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopliliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulq uning foydasiga va kimda bular etishmasa, xulq uning zarariga bo‘ladi” [8]. Haqiqatda ham, ma’naviy-axloqiy komillik, vijdoniylilik, or-nomuslilik, o‘zlik, Vatanga sadoqat, yaqinlariga g‘amxo‘r bo‘lish va boshqa insoniy tuyg‘ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi.

Ularning asosida milliy tarbiya, madaniyat va ma’naviyat hamda katta mehnat yotadi. Bu borada oila, uzluksiz ta’limning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim, mahalla hamkorligida tarbiyalanuvchilarni buyuk siymolar bilan tanishtirish vositasida milliy g‘urur, faxr, iftixor hislarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’li muassasalari bo‘lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda dastlab ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish amaliyoti, uning vujudga kelish tarixi, kasbiy kompetensiyaga oid nazariy-metodologik yondashuvlarga yo‘naltirilgan tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish va ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish zarur. Oliy ta’li muassasalari bo‘lajak mutaxassislarda boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid aniq ma’lumotlar, bilimlar va tajribalar sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan. Bu sohada ajdodlarimiz juda katta tajribaga ega bo‘lgan. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebafo merozi, engilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”ligi haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir. O‘zbek pedagogikasiga hissa qo‘sghan taniqli ma’rifatparvar adiblar Behbudir, Abdulla Qodiriy, sheksper, Gompirenskiy, Abdulla Avloniy kabi olimlar pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sghan, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta’lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog va olimdir.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga qator o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Boshqaruvchi madaniyatli bo‘lishi shart, chunki har bir muassasaning har bir bo‘linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo‘lishlari kerak.

Boshqaruv madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, boshqaruvchi madaniyatini, boshqaruv jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Boshqaruv madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me’yorlarga. Jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me’yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Davlat va jamiyat boshqaruvi sohasi o‘z mohiyatiga ko‘ra murakkab jarayon sanaladi. Sababi mazkur jarayonning bevosita insonni boshqarish bilan bog‘liqligida ko‘rinadi. Shu bois hamma davrlarda ham rahbarlik faoliyatiga maxsus tayyorgarlikka ega malakali shaxslar tayinlanishgan. Ayniqsa, jamiyatning transformatsiyalashuvi davrida zamonaviy boshqaruv muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Muayyan siyosiy tizimdan yangi siyosiy tizimga o‘tish davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida rahbar kadrlar zimmasiga qator strategik vazifalarni yuklaydi.

Ayniqsa, boshqaruvning ijtimoiy pedagogika fani nuqtai nazaridan o‘rganilishi muhim sanaladi. Pedagogika bevosita insonni tarbiyalashni nazarda tutganligi uchun ham unda boshqaruvuni ilmiy jihatdan o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Endi bo‘lajaak pedagoglarda boshqaruv madaniyatining shakllantirilishiga kelsak u quyidagi maqsadlar bilan bog‘liq:

- birinchidan, boshqaruv madaniyatini yaxshi o‘zlashtirgan talaba yoshlari jamiyat va davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etadi;
- ikkinchidan, bo‘lajak pedagoglar har qanday jamiyatning ziyoli qatlami sanaladi va u o‘z o‘rnida jamiyat va davlat boshqaruvi uchun ertangi jamiyat a’zosini tarbiyalab etishtiruvchi mutaxassis sanaladi;
- uchinchidan, pedagogik sohada boshqaruv madaniyati qanchalik yuqori darajada o‘zlashtirilib, ommalashsa talabalar shunchalik uni o‘zlashtirib o‘z hayoti davomida undan real hayotda foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi va sohada ham samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2.Ahlidinov R.Sh. O‘zbekiston Respublikasida maktab ta’limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). – Toshkent: O‘zPFITI, 1997. – 25-26-b.

3.Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.

4. Lazarev V. S., Potashnik M. M. Upravlenie razvitiem shkoly. – M., 1995. – 441 s.

5. Potashnik M.M. Pedagogicheskoe tvorchestvo: problemy razvitiya i oryyt. – Kiev, 1988. – S. 65.

6.Sharay N.A. Teoreticheskie osnovy upravleniya razvitiem gimnazicheskogo obrazovaniya: Diss... d-ra ped. nauk. – M., 2001. – 454 s.

7.Kuzmina N.V., Kuxarev N.V. Professionalizm lichnosti prepoda-vatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. - M.: Vysshaya shkola, 1980. - 119 s

8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., – 95 b. Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 446 b.